




# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-OKTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 66-235-06-80




[www.samstat.uz](http://www.samstat.uz)

## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 22 704,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi<sup>1</sup> 108,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI<sup>1</sup> % da




<sup>1</sup>Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat – 8,0 %, o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 19,5 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,7 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 12,6 % ga o'sish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 274,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

2021- yil

B

0,9 %


2022- yil

B

1,2%

**Yanvar-Oktabr**

### Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21 720,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,6 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,5 % (16,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,9 % (16,3 %) va quyi texnologiyali – 59,6 % (62,3 %)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 11,9 % (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 143,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,5 % (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 93,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,0 % (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 113,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 1 - 19,1 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Aroq ming litr  
100% spirt**




**O'simlik yog'i  
(tozalangan)**




**Paxta tolasi**




**Tamaki**




**Pivo**



**Yumshoq bug'doy  
va spelta uni**



**Paxta tiviti**



**Birinchi navli un**



**Konyak**




2022- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 94,1 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 39,8 % ga pasaygan), 138,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (4,1 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-oktabr	2022-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	144,4	138,5	95,9
Paxta tolasi, ming t.	35,6	36,0	101,1
Tozalangan paxta yog‘i tonna.	13473,0	13072,0	97,0
Konyak spirti – litr 100 % spirt	645,6	251,0	38,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), tonna.	454,8	506,8	111,4

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 8,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 224,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 143,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 2 583,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,8 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 513,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6 146,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,4 % ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 89,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 860,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 142,0 % ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 113,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 602,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 35,0 % ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 73,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 214,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 558,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	366150,4	426308,7	60158,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	4804169	4614519	-189650

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 151,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	32 994,1	31 815,2	-1 178,9
Plastmassa chiqindilari, tonna	375,7	802,8	427,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	85,6	85,4	-0,2

Suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar 99,8 % ni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 3,6 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14 108,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 62,1 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-oktabr

38,8%

2022- yil  
yanvar-oktabr

36,7%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-oktabr

61,2%

2022- yil  
yanvar-oktabr

63,3%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % (2021- yil yanvar-oktabr oylarida 1,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 39,7 % ni, Tayloq tumani 11,5 % ni, Urgut tumani 10,5 % ni, Jomboy tumani 8,1 % ni, hamda Samarqand tumani 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (167,3 %) hamda Tayloq tumanida (179,0 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 39,7 % shuningdek, Tayloq 11,5 %, Urgut 10,5 % ni, Samarqand tumanlarida 8,0 % ni tashkil etdi.




11 180,9 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

14 108,1 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-oktabr



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2021-yil

112,3%

2022 yil

117,4 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 43,6 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,6 %, Tayloq 11,5 % ni, hamda Samarqand tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

**6 844,8** mlrd. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

**8 935,3** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




Kattaqo'rg'on sh.	92,8	146,0
Samarqand sh.	114,9	897,5
Toyloq	313,6	1028,3
Urgut	113,4	1 300,9
Nurobod	34,3	33,6
Samarqand	86,5	313,8
Paxtachi	173,6	366,8
Pastdarg'om	79,9	354,8
Payariq	49,4	39,7
Narpay	81,4	102,7
Qo'shrabot	128,0	41,6
Kattaqo'rg'on	90,3	144,4
Ishtixon	94,5	346,8
Jomboy	112,1	329,1
Bulung'ur	115,3	292,4
Oqdaryo	100,9	197,4

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 16,1 % ni, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.




4 194,0 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-oktabr

4 499,3 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

### Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 46,7 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,2 % ni, Urgut tumani esa 7,4 % ni tashkil etdi.

#### Samarqand viloyati

2021 yil

17 751,0 mlrd. so'm

2022- yil

22 704,6 mlrd. so'm



2021- yil

111,6 %

2022- yil

108,9 %

Kattaqo'rg'on sh.	102,1	337,4
Samarqand sh.	110,9	10 613,6
Toyloq	119,4	1 829,1
Urgut	106,4	1 671,7
Nurobod	122,8	378,2
Samarqand	102,3	1 529,5
Paxtachi	114,2	441,2
Pastdarg'om	110,1	813,4
Payariq	100,8	364,1
Narpay	105,2	543,9
Qo'shrabot	100,2	66,1
Kattaqo'rg'on	98,6	436,6
Ishtixon	101,7	428,7
Jomboy	103,5	2 311,7
Bulung'ur	111,2	527,6
Oqdaryo	98,8	411,5


FHI, % da

mlrd. so'm

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 527,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,6 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (96,8 %), Oqdaryo tumanida (96,5 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (77,9 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (15,1 %), Paxtachi (26,6 %), Ishtixon (32,1 %), Tayloq (29,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 680 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 787 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,6 %) Samarqand shahriga, 1 261 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 796 tasi (9,2 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



#### Jami yangi tashkil etilgan

2021- yil

1 698 dona

2022- yil

1 450 dona



#### Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

8 190 dona

2022- yil

8 680 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan